

**SCIENCE  
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzARB  
muammolari**

Jild 3, Son 12/1

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**№ 12/1 (3)-2023**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизилиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирнов Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги

педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психологик хизмат бошлиғи.

### **22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Марҳабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### **23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР**

Назаров Насридин Атакуллович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамият.

### **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-үй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## **МУНДАРИЖА**

### **07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

<i>Елмуратов Икматулла Гайбуллаевич</i> ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ БИРИНЧИ ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ТАРИХИ (1931-1936 ЙИЛЛАР) .....	12-18
<i>Qitaybekov Azizbek Kenesbek o'g'li</i> QORAQALPOG'ISTONDA HAVO TRANSPORTINING SHAKLLANISHIDA "DOBROLET" AKSIYADORLIK JAMIYATINING O'RNI .....	19-23
<i>Nawrizbaeva Nurjamal Qudaybergenovna</i> QORAQALPOQLARNING GILAMCHILIGI BILAN BOG'LIQ BA'ZI MAROSIMLAR .....	24-29
<i>Сайдуллаев Фаррух Умедулло ўғли</i> МУҲАММАД ҲАКИМ ТЕРМИЗИЙНИНГ ЭТНОЛОГИК ВА ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРИ .....	30-35
<i>Berdiqulov Mirolim Tugalvoyevich</i> TO'DA-1 NEOLIT MAKONINING O'ZBEKISTON TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINI O'RGANISHDAGI O'RNI .....	36-40
<i>Olimjonova Gulida Olimjon qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT BOJXONA XIZMATI ORGANLARI FAOLIYATI ..	41-47
<i>O'ng'arov Lazizbek Amiriddin o'g'li</i> NUROTA TOG' TIZMASINING TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINING O'RGANILISH TARIXI..	48-53
<i>Rahmonov Faxriddin Shoymardonovich</i> MILLIY DEHQONCHILIK MADANIYATINI ETNO-TARIXIY MANBALARDA AKS ETISHI (JANUBIY O'ZBEKISTON MISOLIDA) .....	54-58
<i>Tilavboyev Muhammad</i> JIZZAX VOHASIDA OT BILAN BOG'LIQ URF-ODATLAR VA MAROSIMLAR .....	59-63
<i>To'xtaboyev Xurmatullo Shomirza o'g'li</i> O'ZBEKISTON ILM-FANI RIVOJIDA FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETINING O'RNI (MUSTAQILLIK YILLARI MISOLIDA) .....	64-68
<i>Рахматиллаев Хасанбой</i> МАРКАЗИЙ ОСИЁНИНГ ҚАДИМГИ ДАВР ЭТНИК ТАРИХИНИ ЁРИТИШДАГИ АЙРИМ МУАММОЛИ МАСАЛАЛАР ВА УСУЛЛАРГА ДОИР .....	69-74
<i>Qurbanova Manzila Boqiyevna</i> BUXORO VOHASI MILLIY SHIRINLIKHLARI VA ICHIMLIKHLARI .....	75-80
<i>Ravshanova Gulora</i> QASHQADARYO VOHASIDA MUNTAZAM QUROLLI HARAKATLAR TA'MINOTI (XX-asrning 20- yillarida) .....	81-85
<i>Зарипбаев Уснатдин Оракбаевич</i> ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН АССР ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИ .....	86-90

<i>Baxronov Abdullo Haydar o'gli</i>	
O'ZBEKISTONDA TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINI O'RGANISHDA XALQARO EKSPEDISIYALARINING O'RNI .....	91-95
<i>Maxmatqulov Jasur Isroil o'g'li</i>	
GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASH MAVZUSINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	96-101
<i>Eanova Nilufar</i>	
O'ZBEKİSTON-TURKİYA HAMKORLIGI VA UNİNG NATİJASI (TO'QIMACHILIK SANOATI MISOLIDA) .....	102-106
<i>Норбоев Сарвар Қахрамон ўғли</i>	
АФРОСИЁБДАГИ СҮФД МУДОФАА ДЕВОРИГА ОИД ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ ЎРГАНИЛИШИ (XX АСРНИНГ 50-80-ЙИЛЛАРИ).....	107-111
<i>Эсонов Зиёдбек Юлдашевич</i>	
ФАРГОНА ВОДИЙСИ АҲОЛИСИ ТЎҚИМАЧИЛИК ҲУНАРМАНДЧИЛИГИ АНЪАНАЛАРИ .....	112-117
<i>Tishabayeva Irodaxon Rasulovna</i>	
1960-1970 YILLARDA O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI FAOLIYATI .....	118-124
<i>To'xtamisheva Fotima Musurmonovna</i>	
MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYO VOHASI KASHTADO'ZLIGIDA O'ZGARISHLAR.....	125-132
<i>Sattorov Nurbek</i>	
SHIMOLIY BAQTRIYA VA ZARAFSHON MINTAQALARIDA DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIK MADANIYATI SOHIBLARI ETNOMADANIY ALOQALARINING O'ZBEK XALQI ETNOGENEZEI SHAKLLANISHIDAGI O'RNI .....	133-138
<i>Hazratov Nurali Burxon ug'li</i>	
QADIMGI KESH VILOYATI HUDUDIDAGI ARXEOLOGIK YODGORLIKALARINING O'RGANILISH TARIXIDAN .....	139-144
<i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich</i>	
O'ZBEKISTONDA GAZ-OLTINGUGURT SANOATINING YUZAGA KELISHI VA UNING RIVOJLANISH TARIXI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) .....	145-149
<i>Berdiyev Jamshid</i>	
VOHA JOY NOMLARINING SHAKLLANISHIDA ETNONIMLAR VA PATRONIMLARNING TUTGAN O'RNI .....	150-155
<i>Djurakulov Sherzod Davronovich</i>	
SAMARQAND VILOYATI HUDUDIDI TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINING O'RGANILISHI TARIXI .....	156-161
<i>Курбанова Дилрабо Шерипбоевна</i>	
ПАРЛАМЕНТ ТАРИХИ ВА ТАРИХШУНОСЛИГИ .....	162-172

<i>Zuxriddin Boltayevich Junaev</i> ХОРАЗМДА РЕСПУБЛИКА ТУЗУМИ: ЮТУҚЛАР ВА МУАММОЛАР (1920-1924 йиллар) .....	173-181
<i>Mamatdiev Boxodir Bobojonovich</i> QASHQADARYO MUZEYIDAGI NODIR OSTODON .....	182-186
<i>Norqo'chqarov Xushvaqt Eshnazarovich</i> AFG'ONISTONDA O'ZBEK TILINING QONUNIY ASOSLANISHI, O'ZBEKLAR IJTIMOIY-MADANIY HAYOTIDAGI O'RNI (XX ASR – XXI ASR BOSHLARI) .....	187-197
<i>Ibragimov Rahmon Ziyodullaevich</i> ТОШКЕНТ ВОҲАСИ СҮНГИ БРОНЗА ДАВРИ ТАРИХИ ТИЗИМИДА: Дағн үдуми ва миграция масалалари .....	198-203
<i>Azamatova Gulmira Bajirbekovna</i> ОДАМ САВДОСИГА УЧРАГАН МИГРАНТ ХОТИН-ҚИЗЛАР ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР .....	204-208
<i>Tishabayeva Irodaxon Rasulovna</i> 1960-1970 YILLARDA O'ZBEKİSTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI FAOLIYATI .....	209-215
<b>08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ</b>	
<i>Ostonokulov Azamat Abdukarimovich, Inoyatov Mardonbek Mo'min o'g'li</i> DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDITNING XALQARO STANDARTLARI .....	216-226
<i>Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich</i> O'ZBEKİSTONDA KORPORATIV BOSHQARUV TASHKILIY- IQTISODIY MEXANIZMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI .....	227-232
<i>Отабеков Отажон Гайрат ўғли</i> ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ОПТИМАЛ СОЛИҚ ЮКИ ВА ИҚТИСОДИЙ ЎСИШ МАСАЛАЛАРИ .....	233-243
<i>Шакирова Фарғат Болтаевна</i> ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА БАҲОЛАШ ИНДИКАТОРЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ .....	244-255
<i>Мамбетназаров Бахыт Бисенбаевич</i> ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ТАДБИРКОРЛИК СУБЬЕТЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ .....	256-263
<i>Jumaniyazova Ro'za Quvondiq qizi</i> TURIZM INFRATUZILMASI TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	264-269
<i>Matniyozov Murodjon Rajabbayevich</i> DESTINATSIYA IMIDJINI SHAKLLANTIRISHDA TURISTLARNING SODIQLIGI VA QONIQISHINING AHAMIYATI .....	270-278

<i>Хамирова Зарифа Урол қизи</i>	
ДАВЛАТ СЕКТОРИДА ИЧКИ АУДИТ ВА ДАВЛАТ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТ ТАДБИРЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	279-291
<i>Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>	
KICHIK TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY MOHIYATI ....	292-296
<i>Худойназаров Фахрутдин Хаитович</i>	
ИБН ХАЛДУННИНГ ИҚТИСОДИЁТГА ТАВСИЯЛАРИ .....	297-304
<i>Nurullayev Hoshimjon Hamidovich</i>	
GASTRANOMIYANING TURIZM RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI .....	305-313
<i>Кадырова Шарофат Амоновна</i>	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ....	314-323
<i>Бегматова Зиёда Захиджановна</i>	
ДАВЛАТ ИНТЕРАКТИВ ХИЗМАТЛАРИ ТИЗИМИ АСОСИДА КАДРЛАР БАНДЛИГИНИ ВА УЛАРГА ТАЛАБНИ БАҲОЛАШ .....	324-332
<i>Shafkarov Bakhrom Khudoyberdievich</i>	
TERRITORIAL FEATURES AND THEIR EFFECTIVE USE IN THE CULTIVATION OF VITICULTURE PRODUCTS .....	333-340
<i>Masharipova Fazilat Axmedovna</i>	
OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING AHAMIYATI .....	341-348
<i>Мусинов Дишод Султанович</i>	
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИННИНГИЖТИМОЙ ВА ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИИҚТИСОДИЙ ЎСИШ ОМИЛИ СИФАТИДА .....	349-359
<i>Шакирова Юлдуз Сайдалиевна</i>	
ВОПРОСЫ РАЗРАБОТКИ ДОРОЖНОЙ КАРТЫ АКТИВИЗАЦИИ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ .....	360-368
<i>Абдиовохидов Мамуржон Авазхон ўғли</i>	
РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНГ МАЗМУНИ, ТАВСИФИ ВА РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	369-380
<i>To'xtasinova Muxayyo Mirzasultonovna</i>	
DAVLATNING INNOVATSION TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALASIGA .....	381-388
<i>Курбанова Раҳима Джамшедовна, Мирзаева Ширин Нодировна</i>	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В СТИМУЛИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	389-403
<i>Набиева Нилуфар Муратовна</i>	
ОСОБЕННОСТИ КОМПЛЕКСА МАРКЕТИНГОВОГО ПРОДВИЖЕНИЯ КОМПАНИИ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ .....	404-416

<i>Safarov Radjabboy Eshmukhammadovich</i>	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA INDIVIDUAL DAROMADGA SOLIQLAR MEXANIZMIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI .....	417-428
<i>Sharipova Zulayho</i>	
SANOAT TARMOQLARI KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....	429-434
<i>Шарипов Акбар Илхамович</i>	
ЧАКАНА САВДО КОРХОНАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА РА҆КАМЛИ МАРКЕТИНГНИ РОЛИ .....	435-440
<i>Хаджаев Хабибулла Сагдуллаевич</i>	
ОБЪЕКТИВНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ И ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ АНТИМОНОПОЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ.	441-447
<i>Xamzayeva Dilfuza Samarovna</i>	
SURXANDARYO VILOYATIDA TURISTIK MAHSULOTLARNI BAHOLASH VA SAMARALI RIVOJLATIRISH IMKONIYATLARI .....	448-452
<i>Усманова Насиба Акбаржоновна</i>	
ПУТИ РАЗВИТИЯ МЕНЕДЖМЕНТА В СФЕРЕ УСЛУГ .....	453-459
<i>Исхакова Сарвар Аюбовна</i>	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА ЗАНЯТОСТЬ И КВАЛИФИКАЦИЮ ПЕРСОНАЛА В СФЕРЕ БЫТОВОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	460-467
<i>Ollanazarov Bekmurod Davlatmuratovich</i>	
INNOVATSION TADBIRLIKNI MOLIYALASHTIRISHDA MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH VOSITALARIDAN FOYDALANISH VA UNI TURISTIK XIZMATLAR SOHASIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI .....	468-479
<i>To'ychiyeva Nodira G'ulom qizi</i>	
OLIY TA'LIMNI BOSHQARISHDAGI INNOVATSIYALAR. CHAT GPT YOHUD SUN'YIY INTELLEKT .....	480-485
<i>Абдураҳимова Саида Аҳмаджановна, Адилова Гўзал Абзаловна</i>	
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИНИНГ БАРҚАРОР РИВОЖЛANIШ ТАҲЛИЛИ .....	486-494
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i>	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI .....	495-500
<i>Tadjibekova Dilnoza Bakhtiyorovna</i>	
ENHANCING FINANCIAL RESOURCE FORMATION IN BUSINESSES .....	501-506
<i>Radjabova Malika Ziyodullayevna</i>	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI XUSUSIDA .....	507-512

**09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

<i>Asraqulova Adiba Nabiyevna</i>	
ZAMONAVIY DAVRDA IQTISODGA FALSAFIY QARASHLAR .....	513-520
<i>Жўраев Аҳмад Муҳаммадиевич</i>	
ТИНЧЛИКПАРВАРЛИК ФОЯЛАРИНИНГ ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДАГИ АҲАМИЯТИ .....	521-530
<i>Гуламова Мавжуда Ташиулатовна</i>	
АХМАД ЗИЁУДДИН АЛ-КУМУШХОНАВИЙ АСАРЛАРИДА КОМИЛ ИНСОН ФОЯЛАРИНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ .....	531-538
<i>Abduxolikova Nasiba Alijonovna</i>	
YOSHLARNING ONLAYN TA'LIM JARAYONIGA TA'SIR ETUVCHI IJOBIY SALBIY OMILLAR .....	539-544
<i>Yazdonov Zikirillo Shukurilloyevich</i>	
QALANDARIYLIK VA UNING INSON, JAMIYAT TIZIMIDAGI O'RNI .....	545-552
<i>Sharipova Barno Salimovna</i>	
BIOETIK MADANIYATNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING ZAMONAVIY IMIJI .....	553-558
<i>Xalikulova Umida Rustamovna</i>	
AXBOROT MUHITINING OLIY TA'LIMGA TA'SIRI: KONSTRUKTIV VA DESTRUKTIV OMILLAR .....	559-564
<i>Abbasova Maftuna Subxonovna, Temirova Xurshida</i>	
OILA VA NIKOH MA'NAVIYATI, OILANI MUSTAHKAMLASH OMILLARI .....	565-571
<i>Tog'ayev Nodirjon Ergashevich</i>	
AJDODLARIMIZ BOY ILMIY MEROSINING O'ZBEKİSTONDA MA'RIFATLI JAMIYAT QURISH HAMDA YOSHLAR TARBIYASIDA TUTGAN O'RNI .....	572-576
<i>Kipchoqov Xomidjon Gulomovich</i>	
JAVOBGARLIK PRINSIPINI SHAKLLANTIRISH AXLOQSHUNOSLIKNING ASOSIY MASALASI SIFATIDA .....	577-581
<i>Raximova Rayxon Abdurasulovna</i>	
ZAMONAVIY OILADA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMONING NAZARIY VA USLUBIY TAHLILI .....	582-586
<i>Аззамова Нилюфар Шухратовна</i>	
"АДАБ АЛЬ-ТАБИБ" КАК ИСТОЧНИК НАЦИОНАЛЬНОЙ БИОЭТИКИ .....	587-591
<i>Axmadiyev Nuriddin Muxutdinovich</i>	
INTELLEKTUAL MADANIYAT YOSHLARNING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING MUHIM MEZONI SIFATIDA .....	592-596
<i>Nabiiev Mansur Jamxur o'g'li</i>	
DEMOKRATIK JAMIYAT TARAQQIYOTIDA IJTIMOIY G'OYALAR EVOLYUTSIYASI VA MODERNIZATSİYASI .....	597-603

<i>Kenjayeva Dilrabo Romanovna, Xaydarova Larisa Sunnatovna</i>	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY MADANIYAT SOHASIDAGI O'ZGARISHLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	604-609
<i>Abduraximova Tursunoy Abduvoxid qizi</i>	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM TRANSFORMATSIYASINING FALSAFIY MOHIYATI .....	610-615
<i>Tagayev Ganisher Xasanovich</i>	
YOSHLAR ETNOESTETIK DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA BADIY-ESTETIK OMILLARNING O'RNI .....	616-625
<i>Шоназаров Жамишид Шухратович</i>	
БЕҲБУДИЙ ВА УНИНГ ДАВЛАТЧИЛИК ФОЯСИ .....	626-630
<i>Ҳамраев Сироҷ Абруевич</i>	
ЖАМИЯТ ЯНГИЛАНИШИ ВА ТАДБИРКОР МАҶНАВИЯТИ .....	631-637
<i>Nabiyev Bekzod Muxammadumarovich</i>	
MAFKURAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TARG'IBOT TEXNOLOGIYALARI: O'ZBEKISTON VA XORIJ TAJRIBASI .....	638-642
<i>Hashimova Gulsina Ismoyilovna</i>	
HARBIY IJTIMOIY ISH VA HARBIY MADANIYATNING HARBIY XIZMATCHILAR FAROVONLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI .....	643-648
<i>Karimova Gulnoza Yigitaliyevna</i>	
AXLOQIY MADANIYAT TUSHUNCHASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY ZARURIYATI .....	649-655
<i>Sharipova Kamola Usmonjonovna</i>	
YANGI O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASH BO'YICHA ILG'OR XORIJUY DAVLATLAR TAJRIBASINI MILLIY STRATEGIYAGA TRANSFORMASIYALASH ISTIQBOLLARI .....	656-661

*07.00.00 – Тарих фанлари*

**Maxmatqulov Jasur Isroil o'g'li,**  
T.f.f.d., PhD  
Qarshi davlat universiteti

### **GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASH MAVZUSINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI**

**Annotatsiya:** Maqolada giyohvandlikka qarshi kurash mavzusining nazariy-metodologik asoslari, xususan, giyohvandlik vositalari bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlarni harakteriga ko'ra to'rtta guruhga bo'linishi hamda bu yo'nalishning tarixiy yoritilish usullari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** "Chars", "bang", «giyohvandlik», «giyohvandlik vositalari», «giyohvand», narkotik vositalar.

---

**Makhmatkulov Jasur Isroil ugli,**  
d.p.h.s., PhD  
Karshi State University

### **THEORITICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF THE TOPIC OF COMBATING DRUG ADDICTION**

**Abstract:** The article discusses the theoretical and methodological foundations of the topic of combating drug addiction, in particular the division of drug-related crimes into four groups according to their nature, as well as methods of historical coverage of this area.

**Key words:** "Chars", "bang", "drug addiction", "drugs", "drug".

---

**Махматкулов Жасур Исройл угли,**  
Д.Ф.и.н., PhD  
Каршинский государственный университет

### **ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ТЕМАТИКИ БОРЬБЫ С НАРКОЗАВИСИМОСТЬЮ**

**Аннотация:** В статье рассматриваются теоретико-методологические основы темы борьбы с наркоманией, в частности разделение преступлений, связанных с наркотиками, на четыре группы по их характеру, а также методы исторического освещения этого направления.

**Ключевые слова:** «Чарс», «банг», «наркомания», «наркотики», «наркотик».

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I12.1Y2023N16>

**Kirish.** Giyohvandlik-iste'molchi (giyohvand deb ataladi) vaqtı-vaqtı bilan yoki doimiy ravishda intoksikatsiya holatida bo'lgan, afzal qilingan moddalarni qabul qilish uchun qat'iy istakka ega bo'lgan, uning xarakterini o'zgartiradigan, shuningdek, psixoaktiv moddalarni deyarli har qanday vosita bilan olishga qaror qilishdir.

Giyohvand moddalarni muntazam ravishda iste'mol qilish intellektual buzilishlarning paydo bo'lishiga olib keladi (zaif tushunish, aqliy faoliyatga qiziqmaslik, kognitiv qiziqishlarning yo'qligi), aqliy faoliyatning boshqarilmasligi (qo'rquvni bostirishning iloji yo'qligi, salbiy fikrlarning paydo bo'lishi), hissiy sohaning buzilishi (hissiyotlarning kam doirasi, zamonaviy voqelikka mos kelmaydigan his-tuyg'ularning ustunligi, g'azab va norozilik hissiyotlari, dushmanlik), bu shaxsning tubdan o'zgarishiga, hatto uning tanazzulga uchrashiga sabab bo'ladi. Shu boisdan giyohvandlikni kelib chiqish sabablarini va uni oldini olish kabi masalalarni o'rganish dolzarb ahamiyatga ega.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Giyohvandlik va xalqaro narkobiznes masalasi jamiyat uchun xavfli illatlardan biri sifatida jahon jamoatchiligining jiddiy muammolaridan biriga aylandi. Giyohvandlik vositalari insoniyatga qadimdan ma'lum bo'lib, ularning iste'mol qilinishi diniy xususiyatga ega bo'lgan. Kohinlar, shomonlar turli xil narkotik vositalarning karaxt qiluvchi xususiyatlaridan foydalanib, dindorlarni turli galliyutsinatsiyalar bilan kechadigan chuqur uyquga solganlar. Narkotik vositalarning tarqalishi XIX asrga kelib tezlashib, og'riq qoldiruvchi modda sifatida ishlatildi. XX asr boshlariga kelib esa jahon aholi orasida giyohvandlik kasallik sifatida namoyon bo'la boshladi[1].

Zamonaviy tibbiyotning asoschilaridan biri Paratsels opiysiz vrach bo'lishni xohlamasligini aytgan. Shu so'zları bilan u XV – XVI asrlarda giyohvand vositalarning eng qadimgisi – opiyni tibbiyotda naqadar katta ahamiyatga egaligini ko'rsatgan. Hozirgi davrda opiy sof ko'rinishida dori sifatida ishlatilmasa ham, undan morfin va kofein kabi alkaloidlarni ishlab chiqishda foydalaniladi. Opiydan ishlab chiqilgan dorilar turli kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Opiyning inson aql-idrokiga ta'sir etish xususiyati Osiyo, ayniqsa Xitoyda o'z kuchini ko'rsatib kelgan. Opiy bu mamlakatga Hindistondan olib kirilib, kelgusida Xitoyning o'zida ham tarkibida bu giyohvand vosita mavjud o'simliklar yetishtirila boshlangan. Bu vabo Xitoyda shunchalik keng tarqalib ketdiki, 1914 yilda jami 450 mln. aholidan taxminan 10 mln. kishi opiy iste'mol qildi. Opiy chekish, ayniqsa, Xitoy, Birma va Fors mamlakatlarida tarqalgan, Hindiston va Osiyoning ayrim boshqa mamlakatlarida opiy ovqatga qo'shilgan. "Chars", "bang" chekilgan. Misrda gashish, Marokashda kif chekilgan. Janubiy Amerikada koka o'simligi barglari iste'mol qilingan. Yillar o'tib, bu odat ofatga aylanib, insoniyat giyohvandlikka qarshi kurash boshlashga majbur bo'lgan[2].

Bugungi kunga kelib giyohvandlik jamiyatning butun qatlamlari va barcha ijtimoiy guruuhlarga kirib bordi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 210 milliondan ortiq giyohvandlar (yer yuzi aholisining qariyb 4 foizi qayd etilgan[3]. Eng achinarlisi shundaki, giyohvandlik bolalar orasiga ham kirib bordi. Giyohvandlik illati butun jamiyat hayotiga oddiy oiladan tortib, davlat tuzilmalarigacha o'z ta'sirini o'tkazdi. U mehnat qobiliyatining va daromad manbaining yo'qotilishiga, ko'plab oilalardagi ahvolning yomonlashuvi va buzilishiga, sog'liqni saqlash sohasiga yo'naltiriladigan sarf-xarajatlarning keskin ko'payishiga olib keldi. Giyohvandlarning umumiy dorilardan foydalanishlari oqibatida OITS hamda gepatit kasalligi tez ko'payib bordi. Giyohvand moddalar bilan jinoyatchilikning

o'sishi o'rtasida bevosita bog'liqlik bo'lib, og'ir jinoyatlarning to'rtadan biri giyohvandlar hisobiga to'g'ri keldi.

Giyohvandlik vositalari bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar tarixini o'rganar ekanmiz, bunday jinoyatlarni xarakteriga ko'ra to'rtta guruhga bo'lishi mumkin:

- 1) giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar: taqiqlangan ekinlarni yetishtirish;
- 2) giyohvandlik vositalarini olish va tarqatish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar;
- 3) giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish yoki iste'mol qilishga sharoit yaratish bilan bog'liq jinoyatlari;
- 4) giyohvandlik moddalari bilan bog'liq g'ayriqonuniy harakatlar, ya'ni, giyohvandlik vositalarini o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar.

"Giyohvandlik", "Giyohvandlik vositalari", "Giyohvand" atamalari jahonda turli sohalarda keng qo'llanilib, bu borada tibbiyat xodimlari, huquqshunoslar, tarixchilar, sotsiologlar ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqlolada giyohvandlikka qarshi kurash mavzusining nazariy-metodologik asoslarini yoritib berishda analiz va sintez, kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil, dialektik usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Giyohvandlikning jahonda qabul qilingan nomi – "narkomaniya" so'zi yunon tilidan tarjima qilinganida "narke" – qotib qolish, "mania" – kuchli his-tuyg'u, mayl, havas ma'nolarini ifodalab, narkotik vositalarga tobekliki bildiradi[4]. "Giyohvandlik" atamasi "giyoh", ya'ni, ba'zi o'simliklarning shirasidan tayyorlanadigan narkotik moddalarni iste'mol qiladigan ma'nosini anglatadi[5]. Shuningdek, yuridik ensiklopediyada giyohvandlik – eyforik, tinchlantiruvchi, og'riq qoldiruvchi, uxlatuvchi, bangi qiluvchi yoki qo'zg'atuvchi tabiiy va sintetik moddalarga moyillik ma'nosida ta'rif beriladi[6]. Bu tushunchaga O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonuning 3-moddasida "giyohvandlik (narkomaniya) – giyohvandlik vositalariga ruhiy-jismoniq qaramlik bilan bog'liq kasallik" – deb ta'rif beriladi. Shuningdek, giyohvandlik tushunchasi ma'naviy nuqtai nazardan — bu inson ma'naviyatiga zid bo'lgan uning ijtimoiy-ruhiy holatini izdan chiqaradigan illat, bedavo kasallik sifatida ta'riflanadi[7]. Hozirgi zamон sharoitida "giyohvandlik", "giyohvandlik vositalari", "giyohvand" atamalari turli soha mutaxassislari tomonidan keng qo'llanilmoqda.

Giyohvandlik vositalariga – giyohvandlik vositalari ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasi qonunlari, xalqaro shartnomalari, shu jumladan, BMTning "Giyohvandlik vositalari to'g'risida"gi 1961 yilgi Yagona Konvensiyasiga muvofiq, nazoratga olinadigan, tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan preparatlar va o'simliklar kiradi[8].

Tibbiyotga oid adabiyotlarda giyohvandlikka turli ta'riflar berilgan. Xususan, psixiatriya ma'lumotnomasida giyohvandlik deganda tabiiy yoki sun'iy zaharli moddalar (ayrim dori preparatlari oziq va sanoat zaharlari)ni surunkali iste'mol qilish natijasida kelib chiqadigan vaqtinchalik yoki surunkali zaharlanish holati tushunilgan. Ayni holda giyohvandlik tushunchasining mazmuniga har qanday zaharli moddalarni iste'mol qilish va buning natijasida kelib chiqadigan ham surunkali, ham vaqtinchalik zaharlanish holati kiritilgan. Ayrim narkolog olimlar "giyohvandlik" atamasini tarkibida giyohvandlik moddalari mavjud bo'lgan dori yoki

giyohvandlik vositalarini miqdorni oshirib doimiy iste'mol qilishga moyillikda namoyon bo'ladigan kasalliklarning umumiy nomi sifatida talqin qilish lozimligini qayd etganlar.

Giyohvandlik tarkibida giyohvandlik moddalar mavjud bo'lgan dori vositalarini iste'mol qilish natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan kasallik sifatida ham tavsiflanadi. Shu tariqa iste'mol qilinishi qaramlikka olib kelishi mumkin bo'lgan moddalar doirasi kengayib bordi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra giyohvandlik vositalarining ishlab chiqarilishi va tarqatilishi sekin-asta narkosotsiomuhitning amal qilishini ta'minlaydi. Narkosotsiomuhit deganda, giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish tarqatish ayirboshlash va iste'mol qilish bilan bog'liq ijtimoiy xulq-atvorning barcha jihatlari tushuniladi. Bunday nuqtai nazarni A.Kireyevning ilmiy ishlarida ham ko'rishimiz mumkin. G.Dragan va B.Kalachevlar giyohvandlik — giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni suiiste'mol qilinishi natijasida yuzaga keladigan kasallikdir, deb ta'rif beradi. Boshqa yuridik adabiyotlarda ham giyohvandlik tushunchasiga shunday ta'rif berilgan[9].

"Giyohvandlik" va "zaharvandlik" ("toksikomaniya") atamalari ko'pincha mazmunan bir atamalar sifatida qo'llaniladi. "Zaharvandlik (giyohvandlik) – tabiiy yoki sintetik moddalar (dori preparatlari, ovqatdagi va ishlab chiqarilgan zaharlar) ni iste'mol qilish natijasida kelib chiqadigan vaqtinchalik yoki surunkali intoksikatsiya holatidir"[10]. Ruhiy-jismoniy qaramlikka sabab bo'ladigan, giyohvandlik vositalariga kirmaydigan moddalar (barbitur kislota moddalar, trankvilizatorlar) dan foydalanish ko'payganligi tufayli bir qancha psixiatrlar va narkologlar "giyohvandlik" atamasini qamrov doirasi kengroq bo'lgan zaharvandlik" va "dori-darmonlarga qaramlik, dori-darmonlarni suiiste'mol qilish" atamalari bilan almashtirishni taklif qildilar. Ayrim mualliflarning fikricha, zaharvandlik dori-darmonlar va boshqa shunga o'xhash moddalarga ruhiy-jismoniy qaramlik bilan bog'liq kasallikdir. Tadqiqotchilar iste'mol qilinishi shaxsda ruhiy-jismoniy qaramlikni keltirib chiqaradigan moddalarning bir necha guruhini qayd etishgan:

- 1) morfin hamda morfinga o'xhash ta'sir ko'rsatadigan boshqa moddalar;
- 2) barbituratlar va boshqa uyqu dorilari;
- 3) hind ko'knorisidan olinadigan moddalar (nasha);
- 4) markaziy asab tizimiga ta'sir ko'rsatuvchi moddalar[11].

V.A.Jabskiy fikriga ko'ra, narkotizm tushunchasining mazmuniga ta'rif berishda shundan kelib chiqish lozimki, bu o'z huquqiy tabiatiga ko'ra "giyohvandlik", "giyohvandlikka yo'liqqan shaxs", "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasi", "narkotijorat" tushunchalarini o'z ichiga oluvchi umumijtimoiy hodisadir. "Narkotizm – bu giyohvandlikni, shuningdek jinoyat qonunining tegishli moddalarida jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan giyohvandlik vositalari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qaratilgan qilmishlarni o'z ichiga oluvchi jinoyat-huquqiy va kriminologik institut", deb yozadi u. Bu nuqtai nazarga T.M.Zayko ham qo'shiladi va giyohvandlik vositalarini suiiste'mol qilish bilan bog'liq aksilijtimoiy hodisa "narkotizm" tushunchasining mazmuniga kirishini qayd etadi[12].

**Muhokama.** Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, giyohvand moddalar odamlarning bevaqt o'limini keltirib chiqarayotgan omillar orasida yurak-qon tomir kasalliklari va xavfli o'smalardan oldinda birinchi o'rinni egallagan. Bugungi kunda ayniqsa yoshlar orasida giyohvand moddalarni iste'mol qilish ayniqsa jamiyatning hozirgi va kelajagiga halokatli ta'sir qiladi.

Umuman olganda, giyohvandlikka quyidagi omillar sabab bo'lmoqda:

- oilada, maktabda, tengdoshlari bilan shaxslararo aloqa muammolari;
- yuqori darajadagi oilaviy stress, oilaviy beqarorlik, kam oilaviy daromad;
- shaxsiy xususiyatlar: o'ziga ishonchhsizlik, o'zini past baholash, kayfiyatning o'zgarishi, aqlning pastligi, ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar va boshqalarni rad etish);
- giyohvand moddalarni iste'mol qiladigan tengdoshlar bilan muntazam muloqot qilish, tengdoshlarning bosimiga qarshilik ko'rsatmaslik;
- alkogolizm, giyohvandlik bilan og'rigan bemorlarning oilasida tug'ilish va tarbiya;
- jismoniy va ruhiy salomatlik muammolari;
- erta jinsiy faoliyat va boshqalar.

Giyohvandlikka qarshi kurash usullari ijtimoiy, tibbiy va axboriy ko'rinishda bo'lishi mumkin. Giyohvandlikka qarshi kurashning ijtimoiy usuli deviant xatti-harakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, maishiy, ijtimoiy-psixologik sabablari va sharoitlarini bartaraf etishga qaratilgan. Giyohvandlikka qarshi kurashning tibbiy usuli giyohvandlikdan tibbiy va psixologik jihatdan xalos bo'lishga yordam beradi. Narkologlar giyohvandlikni davolashning yangi samarali usullarini qidirmoqdalar. Giyohvandlik uzoq muddatli davolanishni talab qiladi. Shaxsiy darajada giyohvandlikka qarshi kurash murakkab va uzoq jarayon bo'lib, u odamdan, balki uning yaqinlaridan ham katta kuch talab qiladi.

Hozirgi vaqtda deyarli barcha mintaqalarda yoshlarga oid tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirishda davlat va jamoat tashkilotlarining sa'y-harakatlarini birlashtirgan keng qamrovli dasturlar amalga oshirilmoqda.

Giyohvandlikning oldini olishning asosiy yo'nalishlari:

- giyohvandlikning tarqalishiga yordam beradigan sabablar va shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash, ularni bartaraf etish yoki minimallashtirish choralarini tashkil etish va amalga oshirish;
- jamiyatda giyohvandlik va u bilan bog'liq huquqbuzarliklarga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirish;
- giyohvandlikka qarshi targ'ibot va reklama qilish va noqonuniy reklama qilish faktlariga qarshi turish;
- giyohvandlik xatti-harakatlarining psixologik, pedagogik va tibbiy diagnostikasi;
- tibbiy bo'lмаган giyohvand moddalarni iste'mol qilishning salbiy oqibatlari to'g'risida aholining xabardorligini oshirish;
- giyohvandlikning oldini olishni tashkil etishning mahalliy va xorijiy tajribasiga asoslangan profilaktika ishlarining eng samarali turlari va yo'nalishlarini o'rganish va amaliyotga joriy etish;
- giyohvandlik bilan og'rigan odamlarda davolanish uchun sharoit yaratish va motivatsiyani shakllantirish, ijtimoiy-tibbiy va ma'naviy-psixologik reabilitatsiya samaradorligi va mayjudligini oshirish, reabilitatsiya muassasalari tarmog'ini rivojlantirish; giyohvandlikning tibbiy va ijtimoiy oqibatlarining og'irligini kamaytirish;
- ta'lim muassasalari o'qituvchilari, ota-onalar (boshqa qonuniy vakillar) va yoshlar bilan ishlaydigan boshqa mutaxassislarni (shu jumladan tibbiyot xodimlari va psixologlarni) giyohvandlikning oldini olishning zamonaviy shakllari, usullari va vositalariga o'qitish va qayta tayyorlash;

- ommaviy sport turlarini ommalashtirish va bolalar va o'smirlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga jalg qilish;
- ko'ngilli yoshlarning giyohvandlikka qarshi harakatini shakllantirish;
- giyohvandlikning oldini olish, giyohvand moddalarni reabilitatsiya qilish sohasida ilmiy tadqiqotlar o'tkazish;
- giyohvandlikning oldini olish, giyohvand moddalarni reabilitatsiya qilish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish va boshqalar.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, giyohvandlikka qarshi kurashishda tarix fanining nazariy – metodologik jihatlarini inobatga olgan holda tarbiyaviy ishlarni olib borish maqsadga muvofiq. Aytish lozimki, tarix fani nazariy metodologiyasi murakkab masalalardan bir bo'lib, uning yechimi manbashunoslik, tarixshunoslik, tarixiy qarashlar, falsafa va falsafa tarixi, shuningdek, boshqa fanlar metodlariga ham bog'liq bo'ldi. Bunda ayniqsa, tarixiy atamalarga izoh berish muhim ahamiyat ega. Giyohvandlikka qarshi kurashishda nazariy – metodologik jihatdan tarixiy yondashish uning salbiy jihatlarini yoritishda muhim manba vazifasini o'taydi. Shunday qilib, giyohvandlikka qarshi profilaktika ishlari mas'uliyatli, mulohazali va professional yondashuvni, ma'lum bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар билан қонунга хилоф равишда муомала қилишга қарши курашишнинг ҳуқуқий ва ташкилий чоралари тўғрисида. Ўкув қўлланма. – Тошкент, 2017. – Б.2-5.
2. Ўзбекистон Миллий архиви (Ўз МА), М-76-фонд, 1-рўйхат, 1484-иш, 1-варақ
3. Ўзбекистон Республикаси Нарковазият бўйича миллий шарҳ, 2015 йил. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги наркотик моддаларни назорат қилиш миллий маркази.
4. Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар билан қонунга хилоф равишда муомала қилишга қарши курашишнинг ҳуқуқий ва ташкилий чоралари тўғрисида. Ўкув қўлланма. – Тошкент, 2017. – Б.2-5.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Т.: ЎзМЭ ДИН, 2000. – Б. 500.
6. Ўзбекистон юридик энциклопедияси. Масъул муҳаррир: Н.Тойчиев. – Т.: Адолат, 2011. – Б. 92.
7. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. Тузувчи: Қ.Назаров. – Т.: Фофор Ғулом, 2010. – Б. 118.
8. Жиноятчиликка қарши курашда ҳалқаро ҳамкорлик: Маъruzalар курси Масъул муҳаррир юрид. фан. доктори, профессор А.Х.Сайдов. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2012. – Б.7.
9. Ўразалиев М.Қ. Алкоголизм, фоҳишалик ва гиёҳвандликнинг жиноятчилик билан алоқадорлиги, уларнинг криминологик хусусиятлари ва олдини олишни такомиллаштириш. Юридик фанлар доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2016.– Б.14-28.
10. Справочник по психиатрии. – М., 1985.-С. 153.
11. Ўразалиев М.Қ. Алкоголизм, фоҳишалик ва гиёҳвандликнинг жиноятчилик билан алоқадорлиги, уларнинг криминологик хусусиятлари ва олдини олишни такомиллаштириш. Юридик фанлар доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2016.– Б.14-28.
12. Ўразалиев М.Қ. Кўрсатилган асар.– Б.14-28.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*Nº 12/1 (3) – 2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
мастъалияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**  
100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).